**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,**
**FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida**
**UDK __________**

**TOSHPO‘LATOV SARBOZ YO‘LCHI O‘G‘LINING**
**70540101 «Matematika (Algebra va funksional analiz)» ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha**

# « GILBERT YADROLI BIR O‘LCHOVLI INTEGRAL TENGLAMANI SONLAR NAZARIYASI USULLARI YORDAMIDA TAQRIBIY YECHISH » mavzusida

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYASI**

**Ilmiy rahbar:**
**fizika-matematika fanlari nomzodi**
**Abirayev I. M.**

**Termiz- 2023**

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 20___-yil ______dagi №________ sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.**

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti ”Algebra va funksional analiz” kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

**Dissertatsiya manzilining QR-kodi:**

Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin ______ raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

**Ilmiy rahbar: ______________ f. m. f. n. I. Abirayev**

**Kafedra mudiri: ______________ dots. S. Choriyeva**

**Magistratura bo‘limi boshlig‘i: ______________ PhD. A. Narbayev**

## Приближенное решение одномерного интегрального уравнения с ядром Гильберта с помощью методов теории чисел


### Аннатоция

В этой диссертации, сочетая метод итерации с теоретикочисловым методом дается приближенное решение интегральных уравнений

$$y(x) = f(x) + \lambda \int_0^1 ctg\pi\,(t - x) K(x,t) y(t) dt$$

указана оценка погрешности

$$R_N = 0\left[N^{-\frac{\alpha-1}{2}} log^{0,5(\alpha-1)\beta+M-1} N\right].$$



**Основные слова:** *оптимальный коэффициент, параллелепипедная сетка, узловая точка, кубическая формула, вычет*


## Approximate Solution of one-dimensional integral equation with Hilbert kernel using methods of number theory


### Annotation

In this dissertation, combining the iteration method with the number-theoretic method, an approximate solution of the integral equations is given

$$y(x) = f(x) + \lambda \int_0^1 ctg\pi\,(t - x) K(x,t) y(t) dt$$

error estimate

$$R_N = 0\left[N^{-\frac{\alpha-1}{2}} log^{0,5(\alpha-1)\beta+M-1} N\right].$$



**Key words:** *optimal coefficient, box mesh, node point, cubic formula, residue*

**MUNDARIJA**

# KIRISH

***Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi.***

**Sh. Mirziyoyev**

Hozirgi kunda ilm–fanga Prezidentimiz tomonidan alohida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, 2023 yilning Prezidentimiz tomonidan "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi hamda bu yilda matematika, kimyo, biologiya va geologiya fanlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi biz yosh matematiklar uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Jamiyat ijtimoiy sohasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri ta'lim tarbiya sohasi bo'lib, uning rivojisi yosiy –huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarga bevosita ta'sir etadi hamda ijtimoiy sohalar me'yoriy mohiyatini, kamolot darajasini belgilab beradi.

O'zbekistonda ta'lim tizimining isloh qilishning dasturiy hujjatlarida ta'kidlanganidek, mamlakatimiz ta'lim tizimi xodimlari oldida raqobat bardosh kadrlar tayyorlash, ta'lim tarbiya jarayonini jahon andozalar darajasiga yetkazishni ta'minlash asosiy vazifa qilib qo'yilgan.

Shu ma'noda olib qaraganda, yoshlarning yangi avlodi istiqbol masalalarini kun tartibiga dadil qo'yadigan va uni yecha oladigan, fikr yuritishning yuksak madaniyatini egallagan, siyosiy hamda ijtimoiy iqtisodiy hayotda o'ziga mustaqil yo'l topa oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi mavzusi ana shu talab va vazifalardan kelib chiqib tanlandi.

Fizika, biologiya, mexanika, ekonomika, sotsiologiya va hakozalarning murakkab xodisalarining matematik modellari, xususan qarshiliklar nazariyasida signallarni tiklash, mikro ob'ektlarni kuzatish reduksiyasi, spektroskopmasalalari, uchlamchi yulduzlar konfiguratsiyasining haqiqiy bo‘linish funksiyasini aniqlash, tutilgan yorug‘lik sistemasining egri chiziqlarini interpritatsiya qilish va turli xil chegaraviy masalalar to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki maxsus usullar bilan Fredgolm yoki Volterra integral tenglamalariga va ularning sistemasiga keltiriladi ([7] qarang).

Fredgolm yoki Volterra integral tenglamalar va ularning sistemasini yechishning ko‘pgina analitik va taqribiy usullari mavjud. Analitik usulda yechish Laplas, Fure, Mellin va boshqalarning almashtirishlariga asoslangan bo‘lib, qo‘llanilishida tabiiy tusiqlar mavjud, ular ma’lum doiradagi masalarga qo‘llaniladi va EHM da hisoblash qiyin. Integral tenglamalarini yechishda kvadratur va kubatur formulalar, iteratsiya usuli, proeksion usullar (momentlar usuli, Galerkin-Petrov, kollakatsiya va boshqalar) ([1], [3], [14], [7] qarang).

Ikkinchi tarafdan aerodinamika, gidrodenimika, egiluvchanlik nazariyasi, elektrodinamika, matematik fizikaning chegaraviy masalasi, analitik funksiyalar chegaraviy masalasini yechish singulyar integrallarga keltiriladi ([6], [9], [20], [21] qarang). Bunday tenglamalar nazariyasi yaxshi rivojlangan.

Fredgolm va Volterr integral tenglamalarini taqribiy yechish usullari L.V.Kantorovich va V.I.Krilov[14], N.S.Baxvalova [1] , I.V. Berezina i I.P.Jidkova [3], A. F. Verlenya i A. S. Sizikova [ 7] va hokazolarning monografiyalarida bayon etilgan.

Koshi va Gil’berta yadrali singulyar integral tenglamalarni taqribiy yechish V. V .Ivanova [11] , B. G. Gabdulxaeva [8 ], I. V. Boykova [ 4 ] , S. M. Belotserkovskogo i I. K. Lifanova [2 ], Ye. Ye. Tirtishnikova [19] , V. A. Zolotorevskogo [10] va boshqalarning monografiya va maqolalarida yaxshi yoritilgan.

Shuning uchun, Fredgolm va Volterr yadroli bir o‘lchovli va ko‘p o‘lchovli integral tenglamalarni sonli yechishning effektiv algoritmlarini qurish hisoblash matematikasining aktual masalalaridan hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiyada biz integral tenglamalarni yechishda sonlar nazariyasig usullariga asoslangan kubatur formulalar quramiz.

Oxirgi yillarda regulyar va singulyar integrallar uchun kvadratur va kubatur formulalar qurish nazariyasiga qiziqish ortganligi sababli sonlar nazariyasi usullarini qullash sezilarli darajada oshdi.

Hozirgi vaqtda sonlar nazariyasi usullari hisoblash matematikasining turli masalarini yechishda keng qo‘llanilayapdi. Ayniqsa regulyar integrallarga kubatur formulalar qurish, ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalarni interpolyatsiyalash, ko‘p o‘lchovli Fredgolm 2-tur integral tenglamalarini yechish masalalarida qo‘llaniladi [ 15-19 ] , [22] , [23-24 ] , [25 ] , [26 ] .

Sonlar-nazariyasi usullari xuddi shunday Gil’bert yadroli singulyar integrallar uchun kubatur formula qurish masalasiga keng qo‘llanildi.

Shuni aytish kerakki sonlar nazariyasining turli bo‘limlari S. L. Sobolevaning ( sm. [12-13] ) invariant kubatur formulalar nazariyasiga ham qo‘llanilgan.

Sonlar nazariyasi usullaridan foydalanib, N. M. Korobov va Ye. Hlawkalar birinchi bo‘lib, karrali integrallarni taqribiy hisoblashda integrallash to‘rlarining maxsus sinflarini yaratdi. N. M. Korobov ularni “parallelepipedal to‘r” deb atadi, g‘arb adabiyotlarida esa ular “ Good lattice points ” degan nomni oldi.

K. K. Frolova [23] ning ishlarida parallelepipedal to‘r yordamida integrallashni umumlashtirishga qadam qo‘yilgan va keyin Sloan va Kachoyan[29] lar tamonidan rivojlantirilgan. Keyinchalik taqribiy integrallashning bu yo‘nalishiga V. A. Выkovskim [5] , Lyness [28] , Niederreiter [27] , Sloan [27] va boshqalar katta xissa qo‘shdilar.

Sonlar nazariyasi usullaridan foydalanib qurilgan kubatur formulalar , integralning karraligiga bog‘liq emas (Monte – Karlo usuliga o‘xshash), shuning uchun bunday formulalar integral tenglamalarni iteratsiya usuli bilan taqribiy yechishga qulay bo‘ladi.

Kubatur formulalar va sonlar nazariyasi orasidagi bog‘liqlikka qisqacha to‘xtalamiz. $G_n = \{ 0 \leq x_i \leq 1$ , i=1 , 2 ,… , $n\}$ birlik giperkubda

$f(x) = f(x_1, x_2, \dots, x_n)$ funksiya aniqlangan, uzluksiz bo‘lsin va har bir $x_i$

o‘zgaruvchi bo‘yicha davriy bo‘lsin.

Faraz qilaylik, $f(x)$ni $G_n$ da Fur’e qatoriga yoyish mumkin bo‘lsin

$$f(x) = \sum_{m_1, \dots, m_n = -\infty}^{\infty} C(m) e^{2\pi i (m,x)} ,$$

bunda

$$S(m) = C(m_1, \dots, m_n),\ m_1 x_1 + \dots + m_n x_n = (m, x).$$

Ma’lumki

$$S(0) = \int_{G_n} f(x) dx ,$$

u holda,

$$\int_{G_n} f(x) dx \cong \frac{1}{N} \sum_{k=1}^{N} f(x^{(k)}) \tag{1}$$

kubatur formulaning xatoligini

$$R_N(f) = \frac{1}{N} \sum_{m_1, \dots, m_n = -\infty}^{\infty}{}' C(m) S(m)$$

ko‘rinishda yozish mumkin. Bunda summadagi shtrix $(m_1, \dots, m_n) \neq (0, \dots, 0)$ ekanligini bildiradi. Aynan mana shu tenglik sonlar nazariyasi bilan kubatur formullar orasida bog‘liklik o‘rnatadi.

$$S(m) = \sum_{k=1}^{N} e^{2\pi i(m\,,\,x^{(k)})}$$

ichki summa trigonometrik summa bo‘ladi. Xususiy xolda $x^{(k)}$ sifatida teng taqsimlanmagan $x^{(k)} = \left(\left\{\frac{k}{N}\right\},\ \dots\ ,\left\{\frac{k^n}{N}\right\}\right)$ to‘rni olsak, u holda $S(m)$ sonlar nazariyasida ma’lum bo‘lgan ratsional trigonometrik yig‘indiga aylanadi, bunda N – natural son, $\{y\}$ - $y$ sonning kasr qismi.

$$S(m) = \sum_{k=1}^{N} e^{2\pi i\frac{m_1 k+\dots+m_n k^n}{N}} \ .$$

N . M. Korbov [ 39 ] har bir $x_i$ o‘zgaruvchisi bo‘yicha davriy bo‘lgan va Fur’e koeffitsienti

$$|S(m)| \le C(K(\overline{m}))^{-\alpha}\ , \qquad K(\overline{m}) = \prod_{j=1}^{n} max\left(1\,, |m_j|\right).$$

tengsizlikni qanoatlantiruvchi $f(x) = f(x_1, x_2, \dots, x_n)$ funksiyalarning $E_n^{\alpha}$(C) sinfini kiritdi. Bunda $\alpha > 1$ va S o‘zgarmas $m_1, \dots, m_n$ larga bog‘liq emas. Keyin, analitik sonlar nazariyasi usullarini qo‘llab, u parallelepipedal to‘r deb ataluvchi

$$x^{(k)} = M_{kn} = \left(\left\{\frac{k}{N}\right\},\ \dots\ ,\left\{\frac{k^n}{N}\right\}\right) \qquad (2)$$

to‘rni qurdi, bunda $a_1, \dots, a_n$ maxsus tanlangan natural sonlar (N modul bo‘yicha $\beta$ indeksli optimal koeffitsientlar ( sm. [ 39 ] , c. 98 )) va (2) to‘r uchun (1) kubatur formula

$$R_N(f) = 0\ \left(\frac{log^{\alpha n} N}{N^{\alpha}}\right)$$

diyarli optimal yaqinlashishiga ega bo‘ladi.

(2) parallelepipedal to‘r qurilgan $a_1, \dots, a_s$ optimal koeffitsientlar diofant yaqinlashishlar nazariyasi bilan yaqin bog‘liq, xususan kasr ulushlarning teng taqsimlanishi masalalari bilan.

$\gamma_1, \dots, \gamma_s$ lar [0,1] intervaldan olingan ixtiyoriy xaqiqiy sonlar bo‘lsin.

$$0 \leq x_1 \leq \gamma_1 \,, \dots \,, 0 \leq x_s \leq \gamma_s \qquad (3)$$

shartni qanoatlantiruvchi sohani qaraylik va (2) to‘rning shu sohaga yotuvchi nuqtalar sonini $T_N\,(\gamma_1, \dots, \gamma_s)$ orqali belgilaylik.

[ 39 ] da ko‘rsatilganidek, $a_1, \dots, a_s$ butun sonlarning optimal koeffitsient bo‘lishligining zaruriy va yetarlilik sharti

$$T_N\,(\gamma_1, \dots, \gamma_s) = \gamma_1 \dots \gamma_s \; N + R_O \,, \qquad (4)$$

bajarilishi bo‘ladi, bu yerda $R_O = 0(log^{\beta} N)$ va $\beta$ lar N ga bog‘liq emas.

Shunday qilib, parallelepipedal to‘r tugunlari shunday joylashganki, ularning (3) ko‘rinishdagi ixtiyoriy soha bilan ustma-ust tushishlar soni soha hajmini to‘rning barcha nuqtalari soniga ko‘paytirilganiga asimtotik ravishda teng bo‘ladi.

$M_{ks}$ to‘r nuqtalarining birlik kubda teng taqsimlanishi (4) dagi qoldiq hadning yaxshi baholanishiga bog‘liq. To‘r qanchalik teng taqsimlangan bo‘lsa, bu to‘r bilan tuzilgan kubatur formula shunchalik aniqroq bo‘ladi.

$a_1, \dots, a_s$ butun sonlar xar qanday tanlanganda ham (4) tenglikni qoldiq qismini $\log N$ ning biror darajasidan yaxshiroq baholab bo‘lmaydi.

Bundan ko‘rinadiki, optimal koeffitsientlarda qoldiq xadi eng yaxshi bahoga erishadi va shu bilan parallelepipedal to‘rda qurilgan kubatur formullarning optimalligini ta’minlaydi.

Parallelepipedal to‘rda qurilgan kubatur formullarning o‘ziga xos xususiyati ularning chekli trigonometrik polinomlar

$$P(x_1, \dots, x_s) = \sum_{\bar{m}_1 \dots \bar{m}_s \le C_0 N^{1-\varepsilon}} C(m_1, \dots, m_s) e^{2\pi i(m_1 x_1 + \dots + m_s x_s)}, \qquad (5)$$

ni aniq hisoblashida, ya’ni

$$\int_0^1 \dots \int_0^1 P(x_1, \dots, x_s) dx_1 \dots dx_s = \frac{1}{N} \sum_{k=1}^{N} P\left(\left\{\frac{k}{N}\right\}, \quad \dots, \left\{\frac{k^n}{N}\right\}\right)$$

tenglik har qanday (5) ko‘rinishdagi palinom uchun bajariladi.

V. S. Ryaben’kiy [ 53 ] sonlar nazariyasi usuli bilan tuzilgan to‘rlardan ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalarni interpolyatsiyalash masalasida foydalanish mumkinligini ko‘rsatdi. $f(x_1, \dots, x_s) \in E_s^\alpha$ funksiyaning Fur’e koeffitsientiga parallelepipedal to‘rda qurilgan kubatur formulani qo‘llab,

$$f(x_1, \dots, x_s) = \frac{1}{N} \sum_{k=1}^{N} f\left(\left\{\frac{a_1 k}{N}\right\}, \dots, \left\{\frac{a_s k}{N}\right\}\right) \phi_k(x_1, \dots, x_s) +$$

$$+ 0\left(\frac{log^{\gamma_1} N}{N^{0.5(\alpha-1)}}\right), \qquad (6)$$

interpolyatsion formulani olamiz, bu yerda $\phi_k(x_1, \dots, x_s)$ - biror aniq funksiya va $\gamma_1$ esa N ga bog‘liq emas.

$E_s^\alpha$ sinfda s>2 da (6) formula boshqa formulalardan sezilarli darajada aniqroq bo‘lib, xatolik shu sinfda 1 / $N^{(\alpha-1)/s}$ tartibga ega.

Matematik fizika masalalarida ko‘pincha $\frac{\partial^{n_1 + \dots + n_s} f}{\partial x_1^{n_1} \dots \partial x_s^{n_s}}$ $(0 \le n_1 + \dots + n_s \le \alpha s, \ \ 0 \le n_\nu \le \alpha)$ tartibli hosilaga ega bo‘lgan funksiyalar bilan ishlashga to‘g‘ri keladi, bunday funksiyalarning sinfi $N_s^\alpha$ deb belgilanadi.

Haqiqatdan ham, masalan,

$$\varphi(x) = f(x) + \lambda \int_0^1 K(x, y) \varphi(y) dy$$

Fredgol’mning 2-tur integral tenglamasini qaraylik.

Faraz qilaylik, $f'(x)$, $\frac{\partial K}{\partial x}$, $\frac{\partial K}{\partial y}$ $va$ $\frac{\partial^2 K}{\partial x \partial y}$ hosilalar mavjud va uzluksiz bo‘lsin. Bu tenglamani iteratsiya usuli bilan yechganda

$$\int_0^1 \dots \int_0^1 K(x, x_1) \dots K(x_{s-1}, x_s)\, f(x_s) dx_1 \dots dx_s \ , \qquad (7)$$

ko‘rinishdagi integrallarni yechishga to‘g‘ri kelar edi, bunda integral ostidagi

$$\mathrm{F}\,(x_1, \dots, x_s) = K\,(x, x_1) \dots K\,(x_{s-1}, x_s) f\,(x_s)$$

funksiyani $H_s^\alpha$ sinfga tegishli deb qarash mumkin.

F funksiyani $H_s^\alpha$ sinfga tegishli deb qarab, biz (7) integral to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Agar (7) integralni hisoblash uchun tugunlari koordinata o‘qlariga parallel bo‘lgan to‘r (reshyotka) hosil qiladigan kubatur formuladan foydalansak, u holda xatolik uchun

$$R = 0\left(\frac{1}{N^{\frac{1}{s}}}\right) \qquad (8)$$

dan yaxshi baho olalmaymiz.

Bu usul bilan olingan natija s ning oshishi bilan yanada yomonlashadi. Shuning uchun (7) integralni hisoblashda katta s lar uchun klassik kubatur formulalar yaroqsiz bo‘lib qoladi.

Sodir bo‘lgan qiyinchiliklarni integral ostidagi funksiya $H_s^1$ ga tegishli bo‘lgan holdagi kubatur formulalar yordamida yengish mumkin.

Bunday kubatur formulalarning to‘ri sonlar nazariyasida ta’riflangan xarakterga ega bo‘lish kerak.

Sonlar nazariyasi xarakteridagi to‘rini qo‘llash ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ da va $H_s^1$ sinfda xatoligi

$$R = 0\left(\frac{1}{N^{1-\varepsilon}}\right) . \tag{9}$$

dan oshmaydigan kubatur formulani hosil qiladi.

Bu baho eng yaxshi baho hisoblanadi, chunki $H_s^1$ sinfda to‘rni boshqacha har qanday tanlaganda ham olinadigan baho

$$R = 0\left(\frac{1}{N}\right)$$

dan yaxshi bo‘lmaydi.

Ko‘rinib turibdiki (9) baho $H_s^1$ sinfda klassik usulda olingan (8) va xuddi shunday Monte – Karlo usulida olingan

$$R = 0\left(1/\sqrt{N}\right) .$$

bahodan ancha yaxshi.

**Dissertatsiya ishi 3 ta bob va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.**

1-bob 1.1-§ da sonlar nazariyasining keyinchalik foydalanadigan ta’riflar va ba’zi oldindan ma’lum tasdiqlar keltirilgan.

1.2-§ da sonlar nazariyasining usllaridan foydalanib optimal koeffitsientlar hisoblangan.

2-bob 2.1-§ da Volterrning integral tenglamasi sonlar nazariyasining usllaridan foydalanmay taqribiy hisoblangan va xatoligi ko‘rsatilgan. Xatolik sonlar nazariyasining usullaridan foydalangan xoldagidan ancha kattaligi ko‘rsatilgan. Misol ishlab ko‘rsatilgan.

2.2-§ da $E_s^\alpha$ sinfiga kiruvchi funksiyalar uchun olingan har qanday kvadratur formula $H_s^\alpha$ sinfidagi davriy funksiyalar uchun ham o‘rinli bo‘ladi , chunki 7 - lemmaning birinchi xulosasiga ko‘ra, bunday funksiyalar $E_s^\alpha$ sinfiga tegishlidir . Bunda $H_s^\alpha$ sinfidan ixtiyoriy funksiya uchun kvadratur formulalarini qurish masalasini $E_s^\alpha$ sinfidagi kvadratur formulalari masalasiga keltirish mumkinligini ko‘rsatgan.

3-bob 3.1-§ da parallelopepidal to‘r qurilgan.

3.2-§ esa ko‘p o‘lchovli Volterr integral tenglamalarni sonlar nazariyasi usullari yordamida taqribiy yechish masalasi ko‘rib chiqilgan.

## ASOSIY QISM

## I BOB. FUNKSIYALARNI INTERPOLYASIYALASH

### 1.1-§. Interpolyatsion ko‘phadlarning mavjudligi va yagonaligi. Lagranj interpolyatsion formulasi

Biz asosan algebraik interpolyatsiyalash bilan shugullanamiz. Masalaning quyilishi quyidagichadir. Darajasi p dan yukori bo‘lmagan shunday kupxad kurilsinki, u berilgan (p+ 1) ta $x_0, x_1, \ldots, x_p$ nuqtalarda berilgan

$f(x_0), f(x_1), \ldots, f(x_n)$

qiymatlarni qabo‘l qilsin. Bu masalani geometrik ta’riflash ham mumkin: darajasi p dan ortmaydigan shunday R(x) ko‘phad qurilsinki, uning grafigi berilgan (n+1) ta $M_k(x_k\ f(x))$ $(k = \overline{0,n})$ nuqtalardan o‘tsin.

Demak, $c_t$ koeffitsientlarni shunday aniqlash kerakki,

$$P(x) = c_0 + c_1 x + \cdots + c_n x^n \qquad (1.6)$$

ko‘phad uchun ushbu

$$P(x_k) = f(x_k) \qquad k = 0,1,2 \ldots, n \qquad (1.7)$$

tengliklar bajarilsin. B u tengliklarni ochib yozsak, $c_t(t = \overline{0,n})$ larga nisbatan (n+1) noma’lumli (n+1) ta tenglamalar sistemasi hosil bo‘ladi:

$$\begin{cases} \boldsymbol{c_0 + c_1 x_0 + c_2 x_0^2 + \cdots + c_n x_0^n = f(x_0)} \\ \boldsymbol{c_0 + c_1 x_1 + c_2 x_1^2 + \cdots + c_n x_1^n = f(x_1)} \\ \ldots \quad \ldots \quad \ldots \quad \ldots \quad \ldots \quad \ldots \quad \ldots \quad \ldots \quad \ldots \quad \ldots \\ \boldsymbol{c_n + c_1 x_n + c_2 x_n^2 + \cdots + c_n x_n^n = f(x_n)} \end{cases} \qquad \textbf{(1.8)}$$

Bu sistemaning determinanti Vandermond determinantidir: $W(x_0, x_1, x_2, \ldots, x_p)$. Masala mazmunidan ravshanki, $x_k$ nuqtalar bir-biridan farqli, demak bu determinant noldan farqlidir. Shuning uchun ham (1.8) sistema va shu bilan birga kuyilgan interpolyatsiya masalasi yagona yechimga ega. Bu sistemani yechib, $C_t$ larni topib (1.6) ga qo`ysak, R(x) kuphad aniqlanadi. Biz R(x) ning oshkor kurinishini topish uchun boshqacha yo`l tutamiz, avvalo fundamental ko‘phadlar deb ataluvchi $Q_{nj}(x)$ larni, ya’ni

$$Q_{nj}(x_i) = \delta_i^j = \begin{cases} 0, & i \neq j \quad bo`lganda \\ 1, & i = j \quad bo`lganda \end{cases}$$

shartlarni sanoatlantiradigan ya - darajali kupdadlarni ko`ramiz. U holda

$$L_n^x = \sum_{j=0}^{n} f(x_j) Q_{nj}(x) \qquad (1.9)$$

izlanayotgan interpolyatsion ko‘phad bo‘ladi. Haqiqatan ham, barcha i = 0, 1, 2, . . . n uchun

$$L_n^x = \sum_{j=0}^{n} f(x_j) Q_{nj}(x_i) = \sum_{j=0}^{n} f(x_j)\, \delta_i^j = f(x_i)$$

va ikkinchi tomondan $L_n(x)$ n-darajali ko‘phaddir.

Endi $Q_{n,j}(x)$ ning oshkor kurinishini topamiz, $i \neq j$ bo‘lganda $Q_{n,j}(x) = 0$, shuning uchun ham $Q_{nj}(x\ )$ ko‘phad $i \neq j$ bo‘lganda x —$x_i$ ga bo‘linadi. Shunday qilib, n- darajali ko‘phadning p ta bo‘luvchilari bizga ma’lum, bundan zsa

$$Q_{n,j}(x) = C \prod_{i \neq j} (x - x_i)$$

kelib chiqadi. Noma’lum ko‘paytuvchi C ni esa

$$Q_{n,j}(x) = C \prod_{i \neq j} \left(x_j - x_i\right) = 1$$

shartdan topamiz; natijada:

$$Q_{n,j}(x) = \prod_{i \neq j} \left(\frac{x - x_i}{x_j - x_i}\right) = 1$$

Bu ifodani (1.9) ga quyib, kerakli ko‘phadni aniqlaymiz:

$$L_n(x) = \sum_{i=0}^{n} f(x)_i \prod_{i \neq j} \left( \frac{x - x_i}{x_j - x_i} \right) \tag{1.10}$$

Bu kuhad Lagranj interpolyatsion, ko‘phadi deyiladi.

Bu formulaning xususiy hollarini ko`raylik: n = 1 bo‘lganda, Lagranj ko‘phadi ikki nuqtadan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq formulasini beradi:

$$L_n = \frac{x - x_1}{x_1 - x_0} f(x_0) + \frac{x - x_0}{x_0 - x_1} f(x_1)$$

Agar n = 2 bo‘lsa, u vaqtda kvadratik interpolyatsion ko‘phadga ega bo‘lamiz, bu kuhad uchta nuqtadan o‘tuvchi va vertikal uqqa. ega bo‘lgan parabolani aniklaydi;

$$L_2(x) = \frac{(x - x_1)(x - x_2)}{(x_0 - x_1)(x_0 - x_2)} f(x_0) + \frac{(x - x_0)(x - x_2)}{(x_1 - x_0)(x_1 - x_2)} f(x_1) + \frac{(x - x_0)(x - x_1)}{(x_2 - x_0)(x_2 - x_1)} f(x_2)$$

Misol . 0, 1, 2 nuqtalarda mos ravish da 1, 2, 5 qiymatlarni qabo‘l qiluvchi kvadratik ko‘phad qurilsin.

Bu qiymatlarni oxirgi formulaga qo‘yamiz:

$$L_2(x) = \frac{(x - 1)(x - 2)}{(0 - 1)(0 - 2)} 1 + \frac{(x - 0)(x - 2)}{(1 - 0)(1 - 2)} 2 + \frac{(x - 0)(x - 1)}{(2 - 0)(2 - 1)} 5 = x^2 + 1$$

Endi Lagranj interpolyatsion formulasining boshqa ko‘rinishini keltiramiz. Buning uchun $\omega_{n+1}(x) = \prod_{i=0}^{n} (x - x_i)$

ko‘phadni kiritamiz. Bundan hosila olsak

$$\omega`_{n+1}(x) = \sum_{k=0}^{n} [\prod_{i \neq j} (x - x_i)]$$

Kvadrat qavs ichidagi ifoda $x = x_j$ va $k \neq j$ bo‘lganda nolga aylanadi, chunki {$x_i$ — $x_j$}) ko‘paytuvchi qatnashadi. Demak,

$$\omega`_{n+1}(x) = \prod_{i \neq j} (x - x_i)$$

Shuning uchun ham $\prod_{i \neq j} \left(\frac{x - x_i}{x_j - x_i}\right)$ Lagranj koeffitsientini

$$\frac{\omega_{n+1}(x)}{\omega`_{n+1}(x_j)(x - x_i)}$$

ko‘rinishda yozish mumkin. Bundan esa Lagranj ko‘phadi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$L_n(x) = \sum_{j=0}^{n} \frac{f(x_j)\omega_{n+1}(x)}{\omega`_{n+1}(x_j)(x - x_i)} \qquad (1.11)$$

Endi tugunlar bir xil uzok lik da joylashgan: $x_1 - x_0 = x_2 - x_1 = \ldots = x_n - x_{n-1} = h$ xususiy holni ko‘ramiz. Bu holda soddalik uchun $x = x_1 + th$ almashtirish bajaramiz, u holda

$$\boldsymbol{x - x_j = h(t - j)\ ,\ \omega_{n+1}(x) = h^{n+l}\omega^*_{n+1}(t)}$$

bu yerda

$$\boldsymbol{\omega^*_{n+1}(t) = t(t-1)\ \ldots\ (t-n),\ \ \omega^*_{n+1}(xj) = (-1)n - 1j!\,(n-1)!\,hn}$$

bo‘lib, (1.6) Lagranj interpolyatsion ko‘phadi quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$L_n(x_0 + th) = \omega^*_{n+1}(x) \sum_{i=0}^{n} \frac{(-1)^{n-j} f(x_j)}{(t-j)j!\,(n-j)!} \qquad (1.12)$$

## 1.2-§ Interpolyatsiyalash xatoligi

Biz *f ( x )* fiinksiyani interpolyatsion $L_n(x)$ ko‘phadga almashtirganimizda

$$\boldsymbol{\tau_n(x) = f(x) - L_n(x)}$$

xatolikka yo‘l qo‘yamiz. Bu *interpolyatsiyalash xatoligi* deyiladi. Tugun nuqtalarda xatolik nolga teng. $[a\ ,b\ ]$ ga tegishli ixtiyoriy *x* nuqtadagi ifodasini topamiz va baholaymiz. Buning uchun quyidagi funksiyani qaraymiz:

$$\varphi(z) = f(z) - L_n(x) - K\omega_{n+1}(z) \qquad (1.13)$$

bu yerda $z \in [a; b]$ , *K* - o‘zgarmas va

$$\omega_{n+1}(z) = (z - x_0)(z - x_1)(z - x_2) \dots (z - x_n) \qquad (1.14)$$

(6) dagi o`zgarmas K ni $\varphi(x) = 0$ shartdan topamiz

$$K = \frac{f(x) - L_n(x)}{\omega_{n+1}(x)} \qquad (1.15)$$

*f( z )* funksiya [a,b] da *n* + 1 marta uzluksiz differensiallanuvchi bo`lsin deymiz. $\varphi(z)$ funksiya $[a$ ,b] da *n + 2* ta nuqtada nolga teng, ular *x*, $x_0$,$x_1$, $x_2$,…$x_n$ Roll teoremasiga asosan, $\varphi`(z)$ $[a; b]$ga tegishli *n* + 1 ta, $\varphi``(z)$ $[a; b]$ *n* ta nolga ega bo`ladi va hokazo. $\varphi^{n+1}(z)$ $[a; b]$ da kamida bitta nolga ega bo‘ladi, ya'ni $\varphi^{n+1}(\xi) = 0,\ \xi \in [a; b]$ (1) dan n+1 marta hosila olib, $z = \xi$ desak , quyidagiga ega bo`lamiz:

$$f^{n+1}(\xi) = K(n + 1)! \qquad (1.16)$$

(1.15)va (1.16) dan

$$f(x) - L_n(x) = \frac{f^{(n+1)}(\xi)}{(n+1)!}\omega_{n+1}(x) \qquad (1.17)$$

kelib chiqadi. Bundan

$$|f(x) - L_n(x)| = \frac{M_{n+1}}{(n+1)!}|\omega_{n+1}(x)| \qquad (1.18)$$

Bahoga ega bo`lamiz, buyeda $M_{n+1} = \underbrace{sup}_{[a;b]} \left|f^{(n+1)}(x)\right|$ ga teng.

**Ta'rif** . Quyidagi to'rt shartni qanoatlantiruvchi ushbu S(f,x) = $S_3$( f,x, $\Delta_n$) funksiya interpolyatsion kubik splayn deyiladi:

1) Har bir [$x_i$ , $x_{i+1}$] (1 = $\overline{0,n}$) oraliqda S($f$,$x$) ∈ $N_3$(R)

2) $S(x) \in C^2\ [a;b]$;

3. To'rning $x_k$(k=0,n) tugunlarida S ($f$, $x_k$) = $f_k$ tenglik o'rinli;

4. S '' ( f,x ) uchun

$$S''(f,a) = S''(f,b)=0 \tag{1.19}$$

chsgaraviy shartlar bajariladi. Bu turt shartni kanoatlantiruvchi yagona S($f$, $x$) splayn mavjudligini kursatamiz. Buning uchun avval kuyidagi yordamchi faktlarni keltiramiz.

***Lemma***. Faraz kilaylik, A = [$a_{ij}$] n-tartibli kvadrat matritsaning elementlari

$$\min_{1\le i\le n}\{|a_{ii}| - \sum_{i\ne 1}|a_{ii}|\} = q > 0 \tag{1.20}$$

shartni kanoatlantirsin. U holda $A\bar{x} = \bar{b}$ sistema yagona yechimga ega bulib, uning yechimi

$$\max_{1\le k\le n}|x_k| \le q^{-1} \max_{1\le k\le n}|b_k| \tag{1.21}$$

tengsizlikni kanoatlantiradi.

**Splayn interpolyatsiyasining yaqinlashuvi bo'yicha natijalar isbotsiz beriladi.**

Interpolyatsiyasining segmenti [a;b] berilgan, to`r $x_0<\ldots< x_n$ bu yerda $x_0$=a, $x_n=b$ berilgan segmentda kondensatsiyalanadi, *ya'ni n* → ∞ (uchastkalar soni ortib bormadi) va $n \rightarrow \infty$ $\bar{h} =\cdot \max_{i=1,\dots,n} h_i \rightarrow 0$ (segmentlar sonining ko‘payishi bilan ma'lum bo‘lim uchun maksimal segment uzunligini tavsiflovchi h parametri nolga intiladi)

Quyidagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, to‘r [a, b] segmentida aniqlanganda, interpolyatsiya kubik splayin $S_{\bar{h}}(x)$ [a;b] oraliqda berilgan f (x) funksiyaga yaqinlashadi, $S_{\bar{h}}(x)$ splaynning hosilalari uning (mos keladigan) hosilalariga yaqinlashadi.

Konvergentsiya natijasi tuzilgan funktsiya fazosi, yaqinlashuv tartibi $\bar{h}\rightarrow 0$ va yaqinlashuv faktining o‘zi $\Omega\bar{h}$, $\bar{h}\rightarrow 0$ panjara ketma-ketligini tanlashga bog‘liqligi (mustaqilligi) quyidagilarga bog‘liq:

1) f (x) funksiyaning silliqligi;

2) uning $L_2$[a, b] funksiya fazosida differensiallanuvchi funksiyalar sinfiga mansubligi;

3) interpolyatsiya qiluvchi kubik splaynni qurishda qo‘shimcha (chegaraviy) shartlarni tanlash.

Masalan, [a, b] segmentida yuqoridagi shartlarga qarab 1), 2), 3) interpolyatsiya kub splaynning funksiyaga yaqinlashuvi 4, 3, 2, 3/2 tartibli bo‘lishi mumkin.

Agar yaqinlashish sodir bo‘lsa, u holda splaynning birinchi hosilasining funktsiyaning birinchi hosilasiga yaqinlashishi ro‘yxatdagi birinchi to‘rtta holat uchun kafolatlanadi, ya'ni (4, 3, 2, 3/2) va quyidagi tartibga ega bo‘ladi. 1 kam, ya'ni mos ravishda (3, 2, 1 , 1/2).

Splaynning ikkinchi hosilasining funktsiyaning ikkinchi hosilasiga yaqinlashishi ro‘yxatdagi birinchi ikkita holat uchun kafolatlanadi, ya'ni (4, 3) va mos ravishda (2, 1) tartibli.

**Natijani yuqori konvergentsiya bilan shakllantiramiz:**

**2-TEOREMA.** [a, b] segmentida bir xil to‘r $x_0 < ...< x_n$. ko‘rsatilsin, bunda $x_0$=a $x_n$=b, n ta qadamlar soni bilan $h = \frac{b-a}{n}$ aniqlanadi

f (x) funksiya [a, b] oraliqda to‘rt marta uzluksiz differentsiallanuvchi bo‘lsin.

$P_{3,h}$ (x) nuqtalar ustidagi h qadam ($x_i$ , $f_i$ ), $i$=0,1, 2, 3 bo‘lgan to‘rda qurilgan ko‘pi bilan 3 darajali interpolyatsiya polinomi bo‘lsin.

$P''_{3,h}(x_0)$, $P''_{3,h}$ $(x_1)$ uning ikkinchi hosilasining to‘rning birinchi ikkita tugunidagi qiymatlarini bildiradi: $x_0$ = a, $x_1$=a + h .

Q $_{3,h}$ (x) ($x_i$, $f_i$), $i$= n, n−1, n−2, n−3 nuqtalar ustidagi qadam h bo‘lgan to‘rda qurilgan eng ko‘pi 3-darajali interpolyatsiya polinomi bo‘lsin.

$Q''_{3,h}(x_n)$ , $Q''_{3,h}(x_n-1)$ uning ikkinchi hosilasining oxirgi ikkita panjara tugunidagi qiymatlarini bildirsin: $x_n-1$ = b − h, $x_n$ = b .

Keyin $a_i$ $b_i$ $c_i$ $d_i$ $i$=1, ...n koeffitsientli interpolyatsiya kubik splayn $\hat{S}_h$(x), SLAE asosida n ta bo‘limli to‘rda (1.1) formula bo‘yicha tuzilgan.

$$\begin{cases} \frac{h_1}{3} c_0 + \frac{h_1}{6} c_1 = \frac{h_1}{3} P''_{3,h}(x_0) + \frac{h_1}{6} P''_{3,h}(x_1) \\ c_{i-1}\, h_i + 2\,(h_i + h_{i+1})\, c_i + c_{i+1}\, h_{i+1} = 6 \cdot \left( \frac{f_{i+1} - f_i}{h_{i+1}} - \frac{f_i - f_{i-1}}{h_i} \right), \; i = 1,\ldots n-1 \\ \frac{h_n}{6} c_{n-1} + \frac{h_n}{3} c_n = \frac{h_n}{6} Q''_{3,h}(x_{n-1}) + \frac{h_n}{3} Q''_{3,h}(x_n) \end{cases}$$

bir xil kondansativ to‘rlar ketma-ketligi bo‘yicha: $\bar{\Omega}$h, h→0 4-tartibli [a, b] segmentidagi f (x) funksiyaga bir xilda yaqinlashadi:

$$\max_{x\in[a,b]} \left| f(x) - \hat{S}_h(x) \right| \le \hat{M}h^4$$

$S_h(x)$ ning birinchi va ikkinchi hosilalari f(x) ning 3 va 2-tartibli mos keladigan (birinchi va ikkinchi) hosilalariga bir xilda yaqinlashadi:

$$\max_{x\in[a,b]} \left| f'(x) - \hat{S}'_h(x) \right| \le \hat{M}h^3$$

$$\max_{x\in[a,b]} \left| f''(x) - \hat{S}''_h(x) \right| \le \hat{M}h^2$$

где $\hat{M} = const \cdot \max_{x\in[a,b]} \left| f^{IV}(x) \right|$

**Izox:**

1) 2-teoremaning ma'nosi quyidagicha: agar ma'lum to‘rt marta uzluksiz differensiallanuvchi f (x) funksiya uchun $\widehat{M}$ doimiysining yuqori chegarasi ma'lum bo‘lsa, bir xil n to‘rning shunday sonli segmentlarini tanlash mumkinki, $\hat{S}_h$ (x) splayn va f (x ) funktsiyasi o‘rtasidagi farq (ularning hosilalaridagi farqlarni o‘z ichiga olgan holda) oldindan belgilangan qiymat e > 0 dan kichik edi, masalan, $10^{-4}$ dan kichik.

$$\max_{x\in[a,b]} \left| f(x) - \hat{S}_h(x) \right| \le 10^{-4}$$

$$\max_{x\in[a,b]} \left| f'(x) - \hat{S}'_h(x) \right| \le 10^{-4}$$

$$\max_{x\in[a,b]} \left| f''(x) - \hat{S}''_h(x) \right| \le 10^{-4}$$

2) Yuqoridagi konstantaning yuqori chegarasi ma'lum to‘rt marta uzluksiz differentsiallanuvchi funktsiya uchun ma'lum yoki ma'lum bo‘lishidan qat'i nazar, interpolyatsiya qiluvchi kub splaynning funktsiyaga (shu jumladan ularning hosilalariga) yaqinlashishi va formulada ko‘rsatilgan tartibda sodir bo‘ladi teorema. Bu shuni anglatadiki, etarlicha katta miqdordagi to‘r bo‘limlari

uchun splayn va funktsiya o‘rtasidagi farqlar (shu jumladan ularning hosilalaridagi farqlar) o‘zboshimchalik bilan kichik bo‘ladi.

3) 2-teoremani shakllantirishda ko‘phadlar o‘rniga $P_{3,h}(x)$ va $Q_{3,h}(x)$ (ularning darajasi 3 dan yuqori emas) yuqori darajali polinomlardan foydalanish mumkin:

$P_{4,h}$ (x) 4 dan yuqori bo‘lmagan interpolyatsiya polinomi bo‘lib, birinchi beshta to‘r nuqtasi ustida, ya’ni nuqtadan ($x_i$, $f_i$ ), i = 0,1,2,3,4 ustidagi qadam h bo‘lgan panjara ustiga qurilgan va uning ikkinchi hosilasining qiymatlari $P''_{4,h}$ ($x_0$) , $P''_{4,h}$ ($x_1$) birinchi ikkita panjara tugunlarida: $x_0$ = a, $x_1$=a + h .

## II- bob Kub splayn orqali funksiyalarni interpalyatsiyalash

Silliqligi yuqori bo`lmagan funksiyalar uchun ko‘phadlar yaqinlashish apparati sifatida qator noqulayliklarga ega. Bulardan eng asosiysi shundan iboratki, bunday funksiyalarning biror nuqta atrofidagi holati, ularning to`la holati bilan uzviy bog`liqdir. Bundan tashqari interpolyatsion ko‘phadlarning nuqsoni sifatida ularning har doim ham interpolyatsiyalanuvchi funksiyaga yaqinlashavermasligidir. Eng yaxshi tekis yaqinlashuvchi ko‘phadlarning kamchiligi sifatida shuni kursatish mumkinki, ularni qurish juda qiyin va odatda bunday ko‘phadning darajasi ortishi bilan koeffitsientlari ham tez usib boradi. Oxirgi vaqtlarda shu nuqsondan holi bo‘lgan boshqa yaqinlashish apparatlari ishlab chiqilmokda. Nazariy tadqiqot va tatbiqlarda yaxshi natija beradigan apparat — splayn-funksiyalar apparatidir. Splaynning ta’rifi bilan tanishaylik.

Haqiqiy o`qdagi [a,b] oraliqda ushbu

$$\Delta_n: a = x_0 < x_1 < \cdots < x_n = b$$

tur berilgan bulsin. Faraz qilaylik, $N_m$(R ) darajasi m dan ortmaydigan ko‘phadlar to‘plami, $S^{\{k\}} = S^{\{k\}}$ [a,b] o`zi va k tartibgacha hosilalari-[a,b] oraliqda uzluksiz bo‘lgan funksiyalar to‘plami bo‘lsin.

**Ta'rif** . Quyidagi ikkita shartni qanoatlantiruvchi ushbu $S_m(x) = S_m(x, \Delta_n)$ funksiya defekti 1 ga teng bo'lgan m- darajali polinominal splayn deyiladi:

1) Har bir $[x_i, x_{i+1}]$ $(1 = \overline{0,n})$ oraliqda $S_m(x) \in N_m$ (R)

2) $S_m(x) \in C^{(m-1)}$ $[a;b]$

Bu yerdagi $\{x_i\}$ nuqtalar splayn tugunlari deyiladi. $S_m(x)$ splaynning m-hosilasi [a, b] oraliqda uzilishga ega bulishi ham mumkin.

Agar k=0,1,…m, lar uchun $S_m^{(k)}(a + 0) = S_m^k(b - a)$ tengliklar bajarilsa, $S^m(x)$ splayn b — a davrli davriy splayn deyiladi. Ta'rifni kanoatlantiruvchi splaynlar bilan bir qatorda shunday splaynlar ham karaladiki, ularning silliqligi $\Delta_n$to'rning turli kismlarida turlichadir. Bunday splaynlar [a, b] oraliqning turli qismlarida turli silliklikka ega bo'lgan funksiyalarni ikinlashtirishda foydalaniladi.

Odatda, splayn yagona ravishda ashщlanishi uchun [a, b] oraliqning chetki a va b nuqtalarida chegaraviy shartlar deb ataluvchi kushimcha shartlar qo`yiladi. Amalda uchinchi Darajali, ya'ni kubik splaynlar keng qo`llaniladi.

Splaynlarning hisoblash matematikasida keng qullanilayotganligi sabablaridan yana biri ularning qiymatlarini EXMlarda hisoblashning kulayligi va ular yordamida interpolyatsiyalash kabi jarayonlarning keng sinfdagi turlar uchun yaxshi yaqinlashishligidadir (yukorida aytilgandek kuphad bilan interpolyatsiyalash bunday emas). Bundan buyon biz interpolyatsion kubik va $S_3^{``}(x) = S_3^{``}(b) = 0$ chegaraviy shartlarni kanoatlantiruvchi splaynlar bilan shug'ullanamiz.

## 2.1-§ **Kub splayn, uning kanonik shakli va xossalari, tabiiy chegara shartlari**

**Ta'rif** 2. [a, b] segmentining $x_i$ , i = 0,...n to‘rida aniqlangan kubik splayn tabiiy chegara shartlariga ega splayn (***Kub splayn, uning kanonik shakli va xossalari, tabiiy chegara shartlari***) deyiladi, agar:

$$S''(a) = 0;\ S''(b) = 0 \qquad (2.1)$$

(segmentning [a, b] chegaralaridagi splaynning ikkinchi hosilalari yo‘qoladi).

Izoh: To‘rda $x_i$ , $i = 0,...n$, ***Kub splayn, uning kanonik shakli va xossalari, tabiiy chegara shartlari*** bilan kubik splaynning [a, b] segmentini ko‘rsatish uchun 3n-1 shartlarga mos keladigan 4n koeffitsient kerak bo‘ladi.

Misol: Segment [−1; 1], panjara $x_0$ = -1; $x_1$ = 0; $x_2$ = 1, segmentlar soni n = 2, panjara qadam h = 1. Nolning chap tomonidagi segment [−1;0] va nolning o‘ng tomonidagi maydon [0;1].

1) $$S(x) = \begin{cases} x^3 + 3x^2, & x \in [-1; 0] \\ -x^3 + 3x^2, & x \in [0; 1] \end{cases}$$

***Kub splayn, uning kanonik shakli va xossalari, tabiiy chegara shartlari*** bilan kub splayn hisoblanadi, chunki:

nolning chap tomonidagi maydonda: $S''(x) = 6x + 6$, $S''(-1) = 6\cdot(-1) + 6 = 0$,

nolning o‘ng tomonidagi maydonda: $S''(x) = -6x + 6$, $S''(1) = -6\cdot 1 + 6 = 0$.

[−1;1] oraliqda $S(x)=x^3$ EHC (***Kub splayn, uning kanonik shakli va xossalari, tabiiy chegara shartlari***) bilan kubik splayn emas, chunki

$S''(x)=6x$, $S''(-1)=-6$, $S''(1)=6$ .

**Kub splayin orqali interpolyatsiya** [a, b] oraliqda $f\,(x)$ funksiya va n ta segment va $x_i$, $i$=1,2,3,…n tugunli to‘rni ko‘rib chiqaylik.

**Ta'rif 3**. [a, b] segmentining $x_i$, $i = 0,...n$ to‘rida aniqlangan kubik splayn S(x), agar splayn va funktsiya qiymatlari bo‘lsa, f (x) funktsiyasini interpolatsiya qiladi. panjara tugunlari bir xil:

$$S(x_i) = f(x_i), i = 0,...n \tag{2.2}$$

Interpolyatsiya qiluvchi kubik splaynni qurish uchun 4n-2 shartga mos keladigan 4n koeffitsientni aniqlash kerak: ular orasida 3n-3 konjugatsiya shartlari va n+1 interpolyatsiya shartlari, qarang (2.5)-(2.7) va (2.9).

Shartlarga qaraganda ko‘proq talab qilinadigan koeffitsientlar mavjud bo‘lganligi sababli, interpolyatsiya kubik splaynni qurish muammosini yagona hal qilish uchun yana ikkita shart kerak.

Ko‘pincha ishlatiladi:

- tabiiy chegara shartlari (1.5): $S''(a) = 0$; $S''(b) = 0$

- funksiyaning ikkinchi hosilalari va splaynning mos kelishi sharti

$$S''(a) = f''(a) = \mu 1;\ S''(b) = f''(b) = \mu_2 \tag{2.3}$$

– funksiya va splaynning birinchi hosilalarining mos kelishi sharti

$S'(a) = f'(a) = \nu 1$; $S'(b) = f'(b) = \nu_2$

shuningdek, boshqa turdagi (shu jumladan birlashtirilgan) chegara shartlari, shu jumladan splayn davriyligi uchun shartlar.

Splaynning mavjudligi, yagonaligi va usuli haqidagi teoremalardan birini tuzamiz va isbotlaymiz.

1-TEOREMA. Qiymatlari [a, b] segmentining $x_i$ n$i$, = 0,... to‘rida berilgan har qanday f(x) funksiyasi uchun interpolyatsiya kubik splayn S(x) ko‘rinishning chegara shartlariga ega.

$$S''(a) = \mu_1;\ S''(b) = \mu_2 \tag{2.4}$$

mavjud va noyobdir. Uning $c_i$, $i=1,\dots n$ koeffitsientlarini topish uchun (SLAE) ni yechish kerak.

$$\begin{cases} c_0 = \mu_1 \\ c_{i-1}\, h_i + 2\,(h_i + h_{i+1})\, c_i + c_{i+1}\, h_{i+1} = 6\cdot\left(\dfrac{f_{i+1}-f_i}{h_{i+1}} - \dfrac{f_i - f_{i-1}}{h_i}\right), \\ \qquad i = 1,\dots n-1 \\ c_n = \mu_2 \end{cases}$$

(2.5)

va keyin formulalar yordamida uning qolgan koeffitsientlarini $ai$, $bi$, $di$, $i=1,\dots n$ hisoblaymiz.

$$ai = fi\ ,\ i=1,\dots n \tag{2.6}$$

$$d_i = \frac{c_i - c_{i-1}}{h_i}\ ,\ i=1,\dots n \tag{2.7}$$

$$b_i = \frac{f_i - f_{i-1}}{h_i} + c_i\,\frac{h_i}{3} + c_{i-1}\,\frac{h_i}{6},\quad i=1,\dots n \tag{2.8}$$

SLAE (2.10) usuli bilan echilishi mumkin.

Izox: Teorema bayonida interpolyatsiya qiluvchi kub splaynni qurish imkoniyati ko‘rib chiqiladi va splaynning ikkinchi hosilalari segment chegaralaridagi interpolyatsiya qilingan funktsiyaning ikkinchi hosilalari bilan mos kelishi shart emas, solishtiring (2.4) va. (2.3).

Kub splaynning *4n* koeffitsientini topish uchun 4n tenglamadan foydalaniladi: $3n-3$ konjugatsiya shartlari, 2 chegara sharti (2.3) $n+1$ interpolyatsiya sharti (1.6), shuningdek, uydirma (qo‘shimcha) koeffitsient. $c_0 = \mu_1$

Tenglamalardan koeffitsientlarni chiqarib tashlash $a_i$, $b_i$, $d_i$, $i$ =1,...$n$ $c_i$ , $i$ = 1, ...$n$ ni topish uchun SLAE (2.4) ni oling.

SLAE Sweep Application teoremasining shartlariga mos keladi, bu esa har qanday o‘ng tomon uchun uning yechimining mavjudligi va o‘ziga xosligini bildiradi.

Qolgan koeffitsientlar uchun (2.6) - (2.8) formulalar olinadi. Har qanday (2.4) uchun splaynning barcha koeffitsientlari yagona topiladi, bu esa (2.2) ko‘rinishdagi chegaraviy shartlarga ega interpolyatsiya qiluvchi kubik splaynning mavjudligi va yagonaligini bildiradi.

Isbot:

1) Splayn koeffitsientlarini topish uchun barcha shartlarni yozamiz.

(1.1) ga muvofiq [$x_{i-1}$, $x_i$] segmentidagi splaynning qiymati formula bilan aniqlanadi.

$$S_i(x) = a_i + b_i(x - x_i) + \frac{c_i}{2}(x - x_i)^2 + \frac{d_i}{6}(x - x_i)^3$$

Biz $S_i(x)$ ni ajratamiz va [$x_{i-1}$, $x_i$] segmentida splaynning birinchi va ikkinchi hosilalarining qiymatlarini olamiz:

$$S'_i(x) = b_i + c_i(x - x_i) + \frac{d_i}{2}(x - x_i)^2$$

$$S''_i(x) = c_i + d_i(x - x_i)$$

Agar xi tugunini [$x_{i-1}$, $x_i$] kesmaning o‘ng chegarasi deb hisoblasak, splayn va uning hosilalarini hisoblash uchun $S_i(x)$ dan foydalanish kerak. Keyin

$$S_i(x_i) = a_i$$

$$S'_i(x_i) = b_i$$

$$S''_i(x_i) = c_i$$

Agar $x_i$ tugunini $[x_i, x_{i+1}]$ kesmaning chap chegarasi deb hisoblasak, splayn va uning hosilalarini hisoblash uchun $S_{i+1}(x)$ dan foydalanish kerak. Keyin

